

“TASDIQLAYMAN”

**“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori**

F. Tojiyev
F. Tojiyev

2022-yil “14” fevral

TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ
**(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e'lon joylashtirish to'g'risida)**

2022-yil uchun “Qonunchilik to‘plami” nashrini chop etish yuzasidan e’lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari
va hujjatlari bo‘yicha e’lon matni**

Tanlovga qo‘yilayotgan xizmat turi:

2022-yil uchun “Qonunchilik to‘plami” nashrini chop etish vazifasini bajarish.

Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:

1. Chop etish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;

2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo‘lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o‘z texnik bazasiga ega bo‘lish;

3. G‘olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan nashrning elektron maketi berilgach 3 kun muddat ichida to‘liq chop etib berish va oy yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan “Buyurtmachi”ga hisob-faktura topshirish;

4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalgaloshirish jarayonida korruption holatlarga yo‘l qo‘ymaslik xususida ariza taqdim etish;

5. Tanlovda g‘olib chiqqan tashkilot (korxona) bilan Markaz o‘rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko‘zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;

6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot, uning moliyaviy holati haqida ma'lumot, ishonchnoma, taklif qilinayotgan hizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval hamda hizmat turi bo‘yicha taklif etilayotgan narx va uning jadvali).

Ko'rsatiladigan xizmatning umumiy tavsifi:

№	Xizmat turi	Jami 1 yillik adadi	Davriyligi	Formati hajmi	1 betni chop etish narxi*
1.	"Qonunchilik to'plami" nashrini chop etish	1 560 000 bet (13 000 dona)	Haftada bir marta. Yil davomida 52 ta son.	70x108 1/16 o'rtacha 120 bet (o'zgaruvchan)	280 so'm

*Sahifalar hajmi o'zgaruvchan bo'lgani sababli nashrnning bir betini chop etish bo'yicha taklif beriladi.

Buyurtmachi nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Buyurtmachi mansabdon shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. STIR:201 453 166

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: tomonidan nashrnning elektron maketi berilgach 3 kun.

Tanlov o'tkazish manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Boshlanish muddati: 24.02.2022-yil

Tugallanish muddati: 03.03.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 3-mart.


Takliflarni topshirish manzili: Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. Telefon: (71) 233-25-65.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

- Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;
- Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g'olib aniqlanadi.

**Marketing, reklama
va obuna bo'limi boshlig'i**


F. Kuldashev

Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i


M. Yerdashev

**Mehnatni muxofaza qilish
va xo'jalik ishlari mudiri**


A. Tursunov
24.02.22 yil